

**ZAMONAVIY BOSHQARUV YONDASHUVLARI ASOSIDA  
MAKTABGACHA TA'LIM RAHBARLARI KASBIY FAOLIYATINI  
OPTIMALLASHTIRISH**

**Muratova Dildora Abdugapparovna**

*Oriental universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida maktabgacha ta'lism tashkilotlari rahbarlarining kasbiy faoliyatini optimallashtirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Maktabgacha ta'lism tizimida islohotlar chuqurlashib borar ekan, rahbarlarning boshqaruv kompetensiyasi, yangicha qarashlarga tayangan qaror qabul qilish layoqati va zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada ilg'or xorijiy tajribalar, yangi menejment konsepsiyalari, raqamli texnologiyalarning boshqaruv jarayoniga integratsiyasi, shuningdek, innovatsion yondashuvlar orqali rahbarlar faoliyatining samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, kasbiy rivojlanishga xizmat qiluvchi treninglar, sertifikatlash dasturlari, mentorlik tizimi kabi elementlarning joriy etilishi maktabgacha ta'lism rahbarlari malakasini zamon talablariga mos holda shakllantirishda asosiy omil bo'layotgani ta'kidlanadi. Maqola yakunida mavjud muammolarni bartaraf etish va rahbarlar kasbiy faoliyatini optimallashtirishga oid amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *maktabgacha ta'lism, boshqaruv yondashuvlari, rahbar kompetensiyasi, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, kasbiy rivojlanish, samaradorlik.*

**KIRISH**

Bugungi kunda ta'lism tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida maktabgacha ta'lism bosqichining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Zero, insonning shaxs sifatida shakllanishi, intellektual va ijtimoiy ko'nikmalarining asoslari aynan maktabgacha ta'lism muassasalarida yotqiziladi. Shu sababli ushbu bosqichda ta'lism sifati, tashkilot faoliyatining samaradorligi bevosita rahbarlik faoliyati bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Maktabgacha ta'lism muassasasi rahbari

nafaqat tashkilotning tashkiliy va moliyaviy jihatlarini boshqaradi, balki pedagogik jamoani birlashtiruvchi, ta'lim jarayonining innovatsion rivojlanishini ta'minlovchi, ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yuvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi.

Zamonaviy boshqaruv konsepsiyanining ta'lim tizimiga joriy etilishi rahbarlardan yangicha fikrlash, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish, tizimli yondashuv asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilishni talab etadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, innovatsion metodlar, inson resurslarini samarali boshqarish va xalqaro standartlarga mos kompetensiyalarni shakllantirish kabi yo'nalishlar zamonaviy rahbarlarning kasbiy tayyorgarligida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, maktabgacha ta'linda sifat ko'rsatkichlarini oshirish, muassasa faoliyatini optimallashtirish uchun rahbarlarning boshqaruv salohiyatini tizimli tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va zamonaviy yondashuvlar asosida yechimlar ishlab chiqish zarur.

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining kasbiy faoliyatini zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida optimallashtirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar, amaliy misollar hamda ilg'or tajribalar asosida tahliliy yondashuvlar beriladi. Maqolaning asosiy maqsadi — zamonaviy boshqaruv texnologiyalari va yondashuvlari orqali maktabgacha ta'lim rahbarlari faoliyatini takomillashtirish yo'llarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## **II. ADABIYOTLAR SHARHI**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va amaliy izlanishlar ushbu tizimda rahbar shaxsining kasbiy kompetentligini shakllantirish va takomillashtirish dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi. So'nggi yillarda ta'lim sohasida zamonaviy boshqaruv nazariyalari, innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha salmoqli ilmiy ishlanmalar mavjud.

Xalqaro miqqosda, P. Drucker, H. Fayol, G. Mintzberg kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan boshqaruv nazariyalari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ularning ishlanmalarida rahbarning strategik fikrashi, resurslarni boshqarish va inson kapitalidan samarali foydalanish tamoyillari asosiy o'rinni egallaydi. Ayniqsa, G. Mintzbergning boshqaruv faoliyatini rollarga ajratgan modeli

maktabgacha ta'lif rahbarlarining ko'p qirrali faoliyatini tahlil qilish uchun qulay nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Milliy miqyosda esa A. Abdurakov, S. Sharipova, D. Nishonova, N. G'aybullaeva kabi olimlar maktabgacha ta'lif sohasida rahbarlik faoliyatining psixologik-pedagogik jihatlarini chuqur o'rganib, kompetensiya yondashuvi asosida kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish zarurligini asoslab berганlar. Xusan, N. G'aybullaeva o'z tadqiqotlarida maktabgacha ta'lif rahbarlari uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalar tarkibini aniqlash, ularni shakllantirish metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

So'nggi yillarda e'tiborni tortayotgan yondashuvlardan biri bu — tizimli yondashuvdir. Bu nazariy yondashuv maktabgacha ta'lif tashkilotining barcha tarkibiy qismlarini yagona boshqaruvin tizimi sifatida ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Shuningdek, "ta'linda menejment" va "ta'lif muassasasini strategik boshqarish" kabi konsepsiylar asosida tashkilot faoliyatini samarali yo'lga qo'yish bo'yicha yangi paradigmalarga ehtiyoj sezilmoqda. Raqamli transformatsiya kontekstida olib borilgan tadqiqotlar ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, "Maktabgacha ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar maktabgacha ta'linda zamonaviy boshqaruvin texnologiyalarini joriy etishga oid muhim huquqiy asoslarni belgilab beradi.

Shuningdek, xorijiy tajriba — Finlyandiya, Janubiy Koreya, Yaponiya va Singapur ta'lif tizimlaridagi ilg'or boshqaruvin modeli va rahbarlarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash tizimi — maktabgacha ta'lif sohasida islohotlar olib borish uchun amaliy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bu davlatlarda ta'lif rahbarlarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi modul tizimi, faoliyat samaradorligini aniqlash uchun mo'ljallangan kompetensiyalar modeli mavjudligi e'tiborga molik. Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lif tashkilotlari rahbarlari kasbiy faoliyatini optimallashtirish zamonaviy boshqaruvin yondashuvlari asosida olib borilishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, ilmiy asoslangan yondashuvlarni, kompetensiyalarini baholash va rivojlantirish tizimining mavjudligini taqozo etadi.

### III. TAHILLAR



Maktabgacha ta'lif tashkilotlari rahbarlarining kasbiy faoliyatini zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida optimallashtirish dolzarb vazifa sifatida shakllanib bormoqda. Bugungi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bu yo'nalishda bir nechta asosiy omillar samaradorlikka ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, rahbarlarning kasbiy bilimlari darajasi, boshqaruv uslubi, texnologik savodxonligi, innovatsion yangiliklarni qabul qilishga tayyorligi va jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit ana shunday muhim mezonlar sirasiga kiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aksar maktabgacha ta'lif muassasalari rahbarlari an'anaviy boshqaruv usullariga tayangan holda faoliyat yuritmoqdalar. Bunda yuqorida pastga yo'naltirilgan boshqaruv, buyruqbozlik, qat'iy iyerarxik tuzilma ustuvorlik qiladi. Zamonaviy yondashuvlarda esa bu model eskirgan deb baholanadi. Uning o'rnini ishtirokchilikka asoslangan, moslashuvchan, natijadorlikni birgalikda shakllantiruvchi boshqaruv turlari egallamoqda. Hududiy kesimda o'tkazilgan monitoringlar va so'rovnama natijalari asosida aniqlanishicha, O'zbekiston maktabgacha ta'lif tizimida rahbarlarning 60 foizga yaqini raqamli texnologiyalarni boshqaruv jarayoniga to'liq tatbiq etmagan. Bu esa zamonaviy menejment vositalaridan samarali foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, rahbarlar tomonidan innovatsion metodikalarni joriy etish holati ham past ko'rsatkichni tashkil qiladi. Bunga sabab sifatida malaka oshirish kurslarining sifati, motivatsiyaning pastligi, tashabbuslarni qo'llab-quvvatlovchi tizimlarning yetarli emasligi keltirilmoqda. Biroq ijobiy misollar ham mavjud. Jumladan, ayrim yirik shaharlardagi maktabgacha ta'lif tashkilotlarida rahbarlar tomonidan mustaqil strategik rejalashtirish, STEAM elementlarini joriy etish, ota-onalar va hamjamiyat bilan interaktiv aloqalarni kuchaytirish orqali tizimdagi sifat o'zgarishlariga erishilgan. Bu esa zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida kasbiy faoliyatni optimallashtirish imkonini tasdiqlaydi. Shuningdek, xalqaro tajriba bilan taqqoslash natijalariga asoslanib aytish mumkinki, yetakchi davlatlar rahbarlarni tayyorlash va ularning kompetensiyasini baholashda uzluksizlik, tizimlilik va natijadorlik mezonlariga asoslanadilar. Bu jihatlar milliy tizimda ham keng tatbiq etilishi kerak. Ayniqsa, maktabgacha ta'lif rahbarlari uchun zamonaviy liderlik, inklyuziv qadriyatlar, konfliktologiya va o'zini o'zi rivojlantirish kabi kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lif tashkilotlari rahbarlarining kasbiy faoliyatini zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida optimallashtirishda tizimli yondashuv, zamonaviy texnologiyalarning integratsiyasi, uzluksiz o'qitish va faoliyatga muvofiq kompetensiyalarini rivojlantirish hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

#### IV. MUHOKAMA

Maktabgacha ta'lif tashkilotlari rahbarlarining kasbiy faoliyatini zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida optimallashtirish bo'yicha o'tkazilgan tahlillar natijalari asosida muhokama qilinadigan asosiy jihatlar shakllanadi. Avvalo, rahbarlarning kasbiy salohiyatini oshirishda zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari, masalan, transformatsion liderlik, tizimli yondashuv, iniklyuziv boshqaruv va raqamli menejment elementlarining tatbiqi dolzarb sanaladi. Zamonaviy boshqaruv yondashuvlarining maktabgacha ta'lif tizimiga integratsiyasi, bir tomonidan, rahbarning individual salohiyatiga, ikkinchi tomonidan, institutsional muhitga bevosita bog'liq. Bu jihatlar orasida rahbarlarning ochiqligi, o'zgarishlarga tayyorligi, tashabbuskorlik darajasi va qaror qabul qilishdagi mustaqilligi muhim ahamiyat kasb etadi. Agar rahbar innovatsion fikrlovchi, ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli, jamoani motivatsiyalashga qodir bo'lsa, u holda tashkilotda yangilanishlar samarali kechadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida rahbarlarning kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimlashtirilmoxda. Biroq mavjud holatlarda bu kurslar ko'p hollarda nazariy yondashuvdan iborat bo'lib qolmoqda. Zamonaviy yondashuvlar esa amaliy ko'nikmalar, innovatsion loyihalar asosida rahbarni real sharoitda faoliyatga tayyorlashni taqozo etadi. Ayniqsa, muassasani strategik rejorashtirish, jamoani boshqarish, resurslarni samarali taqsimlash, sifat monitoringi tizimlarini yuritish bo'yicha rahbarlarda malaka va kompetensiya shakllantirish zaruriyati ortib bormoqda. Bundan tashqari, muhokamalarda maktabgacha ta'lif muassasalarida ijodiy muhit yaratish, o'qituvchilarni ilg'or tajribalarni o'rganishga rag'batlantirish, ota-onalar bilan ochiq muloqotni yo'nga qo'yish bo'yicha rahbarlar roli yetarlicha aniqlashtirilmoxda. Rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqilsa, rahbar faqat buyruq beruvchi emas, balki jamoani birlashtiruvchi, motivatsiya beruvchi va natijalarga yo'naltiruvchi shaxs sifatida qaraladi.

Shu o'rinda muhim muhokama nuqtasi sifatida shuni ta'kidlash joizki, maktabgacha ta'lism tashkilotlari rahbarlarini zamonaviy yondashuvlarga mos holda tayyorlash uchun modul asosidagi uzluksiz o'qitish tizimi joriy etilishi lozim. Bu tizimda liderlik, raqamli texnologiyalarni qo'llash, inklyuziv boshqaruv, pedagogik jamoani boshqarish, stressga bardoshlilik kabi yo'naliishlar ustuvor bo'lishi kerak. Shu tariqa, rahbar o'z kasbiy faoliyatini o'zgaruvchan sharoitlarga moslashtira oladigan darajada malakali va moslashuvchan bo'lishi ta'minlanadi. Umuman olganda, muhokama qilinayotgan masalalar maktabgacha ta'lism tashkilotlari rahbarlari kasbiy faoliyatining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishi uchun chuqur rejalashtirish, ilg'or tajriba almashinuvi, zamonaviy pedagogik menejmentga asoslangan yondashuvlarning tatbiqini zarur qiladi.

#### V. XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotlar va tahlillar asosida aniqlanganki, maktabgacha ta'lism tashkilotlari rahbarlarining kasbiy faoliyatini optimallashtirishda zamonaviy boshqaruv yondashuvlarining tatbiqi muhim strategik yo'naliish hisoblanadi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lism tizimi oldida turgan vazifalar, xususan, sifatli ta'lism muhitini yaratish, pedagogik jamoani samarali boshqarish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamli menejment va inklyuziv qadriyatlar asosida faoliyat yuritish rahbarlardan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyalarni talab etmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi davrda an'anaviy boshqaruv uslublari o'zining samarasini yo'qotib bormoqda va ular o'rnini strategik, demokratik va inklyuziv boshqaruv uslublari egallamoqda. Ayniqa, transformatsion liderlik, tizimli boshqaruv, jamoaviy qaror qabul qilish, tashkiliy madaniyatni shakllantirish kabi yondashuvlar rahbarlik faoliyatining mazmun-mohiyatini tubdan yangilashga xizmat qilmoqda. Maktabgacha ta'lism tashkilotlari rahbarlarini zamonaviy yondashuvlar asosida qayta tayyorlash va ularning malakasini doimiy oshirib borish orqali ularning kasbiy salohiyati oshadi, bu esa o'z navbatida ta'lism sifati va muassasa samaradorligining ortishiga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan, quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- Rahbarlar uchun zamonaviy kompetensiyalar modelini ishlab chiqish va uni malaka oshirish kurslarida amaliyotga joriy etish;

- Raqamli texnologiyalar va innovatsion boshqaruv usullarini o'rgatish orqali rahbarlarning axborot madaniyatini rivojlantirish;
- Transformatsion liderlik, pedagogik menejment va inkyuziv yondashuvlar bo'yicha maxsus o'quv modullarini ishlab chiqish;
- Rahbarlarning faoliyatini baholash tizimiga zamonaviy mezonzlarni tatbiq etish va ularni muntazam monitoring qilib borish.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida maktabgacha ta'lif rahbarlarining kasbiy faoliyatini optimallashtirish, nafaqat muassasalarning rivojlanishiga, balki butun ta'lif tizimining sifat jihatidan yuksalishiga zamin yaratadi. Bu yo'nalishda tizimli tadqiqotlar, ilg'or tajribalar almashinushi va innovatsion yondashuvlar asosida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar muhim o'rinn tutadi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Rahmatov, B. (2021). Maktabgacha ta'lif tizimida rahbarlik kompetensiyalarini rivojlantirish. Xalq ta'limi, 10(1), 34-40.
2. Salimova, Z., & G'ofurov, S. (2019). Inklusiv ta'lifda boshqaruv yondashuvlarining o'ziga xosliklari. Pedagogika tadqiqotlari jurnali, 3(3), 85-97.
3. Zeynalliev, A. (2020). Innovatsion texnologiyalar va boshqaruv: ta'lif tizimida yangi imkoniyatlar. Ta'lif va texnologiyalar, 7(4), 130-141.
4. Sodiqov, R. (2018). Zamonaviy ta'lif tizimida boshqaruv va boshqaruv metodlari. Tashkent: Universitet nashriyoti.
5. Yusupov, O. (2021). Rahbarlik kompetensiyalari va boshqaruvning samarali yondashuvlari. Ta'lif tizimida boshqaruvni rivojlantirish, 2(6), 22-33.